

NODIRABEGIM SHOIRA, AMIRNING RAFIQASI VA DAVLAT BOSHQARUVCHISI SIFATIDA

Abdullaeva Nargiza Nasilloevna

Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Nodiraning badiiyat olamini shakllantirishda Qo'qon adabiy muhitining tutgan o'rnini va shuningdek, bu muhitning rivojlanishiga shoira ta'siri masalasi tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada shoira badiiyat olamini shakllantirgan omillar manbai ko'rsatib berilar ekan, shulardan shoira ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan adabiy muhit va turmush o'rtog'i Amiriyning sa'y-harakatlarida batafsil to'xtalangan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, taraqqiyot, ta'sir, fors, arab, turkiy, salaf, xalaf, an'ana, obraz.

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida Buxoro, Xiva adabiy muhiti qanday katta ahamiyat kasb etsa, Qo'qon adabiy muhiti ham ular qatorida turadigan darajada yuksakdir. Darhaqiqat, Qo'qon adabiy muhitini mumtoz adabiy merosimiz xazinasiga, ko'zga ko'ringan ko'plab ijodkorlar: Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Maxmur, Fazliy, Ado, Furqat kabilarni yetkazib berganligining o'ziyoq, uni adabiy muhitlar aro o'ziga xos o'rnini borligini belgilaydi.

Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xos vakilasi Mohlaroyim – Nodiraning badiiy mahoratini o'rganishdan oldin, nazarimizda, hassos shoira tarbiyalab, uni shoira darajasiga ko'targan muhit, shuningdek, shoira badiiyat olamini shakllanishiga sabab bo'lgan omillar haqida so'z yoritmoq joiz.

ASOSIY QISM

Nodirabadiiyat olamini shakllantirgan omillar xususida to'xtaladigan bo'lsak, bularning manbai sifatida bir necha omillarni ko'rsatish mumkin. Bularga quyidagilarni kiritishni lozim topdik:

1. Shoira ijodiga turkiy va fors adabiyotlarining ta'siri;
2. Diniy-ma'rifiy, diniy-ilohiy, falsafiy-tasavvufiy va axloqiy-ma'naviy tushunchalarni yaxshi bilgani;
3. Nodira ijodiga Qo'qon adabiy muhiti ta'siri;
a) turmush o'rtog'i Amiriyning sa'y-harakatlari; b) Jahon otin Uvaysiy saboqlari.

Biz quyida, shoira Nodira ijodiga Qo'qon adabiy muhiti ta'siri, xususan turmush o'rtog'i Amiriyning sa'y-harakatlari va Jahon otin Uvaysiy saboqlarini tutgan o'rnini masalasiga to'xtalamiz.

Endi, avvalo Qo‘qon adabiy muhiti haqida to‘xtalsak. Qo‘qon adabiy muhiti XVIII asr I-yarmida Qo‘qon xonligi taassarufida tashkil topgan bo‘lib, bunga xonlikni boshqargan shaxslarning xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajasini ko‘tarish maqsadida ijodkorlarga rahnamolik qilib, adabiyot va san‘at rivojlanishiga imkon yaratishgani sabab bo‘lgan. Bu haqida “Ansobus–salotin...” asari muallifi Mirzo Olim Qo‘qon xoni Abdulkarimxon(1732–1733) davrini shunday yozgan:

“Abdulkarimxon...xizmatiga Eshon, So‘fi Olloyor domullo Olim Konibodomiy va domullo Vali Xo‘jandiy va Mashrabi devonayi Namangoniy kelib suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidin ifoda va istifoda topib, necha umumiy diniy va kashf yaqinig‘a olim va koshif bo‘lib kamolot hosil qildi” [3].

“Qo‘qon adabiy muhiti”ni maxsus o‘rgangan adabiyotshunos olim, akademik Aziz Qayumov ham bu davr haqida: “Xonlar adabiy harakatga xech qachon befarq qaramaganlar. Ular xalq ommasini o‘z qo‘l ostlarida tutish uchun barcha vositalardan foydalanishga harakat qilganlar. Keng omma o‘rtasida ma‘lum nufuz va e‘tiborga ega bo‘lgan kishilarni o‘z atroflariga tortishga xarakat qilganlar...Bundan tashqari xonlar o‘z atrofiga turli shoirlarni yig‘ib, ularni turli yo‘llar bilan rag‘batlantirib ham turganlar. Shu yo‘sinda saroy atrofiga maddoh, xushomadgo‘y shoirlar yig‘ila borgan”[4], –deb yozadi. Olim o‘z fikrlarini dalillash maqsadida “Tuhfatut-tavorixi xoniy”dan quyidagilarni keltiradi: “Qo‘qon xoni Norbo‘tabiyning (1770–178\9) Muhammadin degan o‘g‘li bo‘lgan. Bu shahzoda adabiyotdan uncha-muncha xabardor bo‘lib, o‘z atrofiga bir necha shoirlarni yiqqan edi. Bir kuni bazm vaqtida u shoir Nusratga qarab quyidagi misrani o‘qiydi:

Ba shirdi sham chun qo‘ng‘uz” buvad parvona-parvona.

Tarjimasi: Shamning atrofida qo‘ng‘iz shunchalik parvona bo‘ldi. Shoir Nusrat darhol xushomad qilib, ikkinchi misrani to‘qiydi: Sarat gardam, tariqi dilnavozy yod gir az sham.

Tarjimasi:

Boshingdan aylanay, dilnavozlik yo‘lini shamdan o‘rgangin.

Bu hozirjavoblikdan xursand bo‘lgan shahzoda shoir Nusratga ellik arava bug‘doy in‘om etgan emish[7]–degan ma‘lumotlarni keltiradi.

Demak, Mohlaroyim – Nodira mana shunday taraqqiy topgan Qo‘qon adabiy muhitida ijod qildi, shu bilan birgalikda keyinchalik, bu muhitga o‘zi ham rahnamollik, homiylik qildi. Xo‘sh, Mohlaroyim–Nodira Qo‘qongakelgunga qadar kim edi? Qanday oilada dunyoga kelgan va adabiyot bilan, xususan she‘riyat bilan qay darajada oshno edi? Uni shu darajada yetuk shoira bo‘lib yetishiga kim yoki nima sabab bo‘ldi? Bu kabi savollar juda ko‘p adabiyotshunos olimlarni qiziktirib kelgan. O‘z davrida Hakimxon to‘ra bular haqida shunday yozadi: “...U vaqtda Anjijon hukumati Rahmonqulbiy amir Olimxonni tog‘asi erdi, anga taalluq erdi, Rahmonqulbiyni qismatida bir qizi bor erdi, ismi Mohlar oyim erdi. Amir Olimxon

xohladikim, ul mahdurani amir Umarxonni iqdi nikohiga kirguzsa. Ma'sudxon to'rani benihoyat hadya birla yubordikim, Umarxonni Andijonga olib borib, iqdi nikoh qilib, Marg'ilonga keltirib qo'yib kelgil, deb ruxsat berdi. Ma'sudxonto'ra Marg'ilonga kelib, shahzoda Umarxonni lomodliqqa taklif qilib, Andijonga olib yaxshi soatda ul inji saltanatni tohidi ruhga iqd bog'ladilar" [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Ko'rinib turibdiki, she'riyat olamiga endigina tashrif buyurayotgan Nodira ijodiga turmush o'rtog'i Amiriy va Uvaysiyning ta'siri katta bo'lgan.

Ushbu bosqichda biz xulosalarimizni bayon qilishni maqsadga muvofiq deb topdik. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ko'rinib turibdiki, she'riyat olamiga endigina tashrif buyurgan Nodira uchun Qo'qonning adabiy muhiti uning davr shoirasi, ya'ni didi va zavqi baland shoira sifatida yetishishida muhim omillardan hisoblanadi. Xususan, uning eri Amir Umarxon va Uvaysiyning ta'siri katta bo'lgan.

2. Nodira ijodiga turk va fors adabiyotining sezilarli ta'siri qayd etilgan. Shoira mumtoz adabiyot namoyandalari Hofiz, Navoiy, Fizuliy ijodiy tajribalarini munosib davom ettirdi.

3. Uning lirikasini kuzatar ekanmiz, shoira diniy-ma'rifiy, diniy- ilohiy, falsafiy-tasavvufiy va axloqiy-ma'naviy tushunchalarni yaxshi bilganini ta'kidlashimiz mumkin.

4. Shuningdek, Nodira ijodi va uning shoiru shoiralarga rahnamoligi hech ikkalanmay aytish mumkinki, tahsinga loyiq. Shoira ijodiga nazar tashlar ekanmiz, shunga shohid bo'ldikki, uning lirikasini muhabbat, sadoqat mavzusi tasvirida go'zal tashbehlar egallar ekan, ular zamirida insonparvarlik, adolat, iymon-e'tiqod g'oyalarini zargarona singdiradi va bubilana Qo'qon adabiy muhitiga munosib voris ekanligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XYI–XIXasr I yarmi). –T.: Fan, 2009. .
2. Amiriy. Debocha. O'zR FA adabiyot muzeyi, 403–raqamli qo'lyozma. 25a–b–varaqlar.
3. Ansof us–salotin. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, 18–6 varaq.
4. Muntahab ut-tavorix. O'zRFA ShI qo'lyozmasi, № 594 v.161a-varaq.
5. Nodira.Asarlar, 2 jilddik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san'at, 1968.
6. Nodira–Komila. Devon. –T.: Xalq merosi, 2001.
7. Tuhfatut-tavorixi xoniy. O'zRFA ShI qo'lyozmasi, 440, 84 a –varaq.